

**ERGONOMIHLARNING SHAKLLANISHIDA TIL O'YINLARINING AHAMIYATI  
(Qarshi shahri materiallari asosida)****Usmonova Umida Abdulkarimovna**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ErgonomiHLarning yasashida potentsial iste'molchining e'tiborini jalb qilish uchun turli til o'yinlaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Maqolada ergonomiHLarning yasashida turli til o'yinlarining qo'llanilishi Qarshi shahar materiallari asosida tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** til o'yini, grafik o'yin, ergonomi, ergonomiya, funksiya, nominator, nominatsiya.

**Annotation.** It is also effective to use various language games to attract the attention of a potential consumer when creating ergonyms. The article, based on materials from the city of Karshi, examines the use of different language games in the creation of ergonyms.

**Key words:** language game, graphic game, ergonomics, ergonomics, function, nominator, nomination.

Til o'yini badiiy matnlarda ham, tilning nostandart sohasida ham namoyon bo'ladi, noodatiy va okkozional so'z va iboralarda namoyon bo'ladi, yumor va hazil bilan ajralib turadi. Til o'yini nutq va matnga ekspressivlik, jo'shqinlik va parodiyani kiritadi. Shuning uchun ham tadqiqotlarda til o'yinining ko'ngilochar, namoyish etuvchi, berkituvchi, emotsional-ekspressiv va aksiologik funktsiyalari ajratib ko'rsatiladi.

Shahar infratuzilmasi obyektlarini nominatsiyasida lingvistik kreativlikning namoyon bo'lishi Qarshi shahar zamonaviy ergonomiyasining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Shahar makonining mavjud turli-tuman obyektlari nominatsiyani ajratib ko'rsatish, unga o'ziga xos mazmun berish, uni yanada jozibali va estetik qilish uchun nom yasashning an'anaviy lingvistik vositalaridan foydalanishning o'zi yetarli emas. Nominatorlar formal va semantik lingvistik vositalar, o'zbek, rus va boshqa tillarning grafik elementlari, pretsedent matnlar, shrift tanlash, qo'shimcha va paralingvistik vositalar va boshqalardan foydalangan holda nom yaratishadi. Bunday holda, til o'yini lingvistik ijodiy fikrlash shakli sifatida yangi nominatsiyalarni yaratish uchun qulay vositaga aylanadi.

Tilshunoslikda til o'yinini lingvistik me'yorga munosabati masalasini o'rganishda turli qarashlar mavjud. Masalan, V.Z.Sannikov komiklikning mohiyatini muhokama qilib, til o'yinini ataylab kiritilgan noto'g'ri hodisa deb hisoblaydi [1,23]. T. A. Gridina til normasining buzilishini so'zlar bilan ishlashning rasmiy va semantik qoidalardan chetga chiqish tendentsiyalarini amalga oshiradigan til o'yinining ishlash mexanizmlaridan biri sifatida ko'rsatadi [2,214].

Rus tilshunoslari E. A. Zemskaya, M. V. Kitaigorodskaya va N. N. Rozanovlar "Til o'yinida ma'lum bir shablonchilik ijodkorlik bilan uyg'unlashadi, ... til o'yinining eng tipik, trafaret usullarini o'rnatish va ular uchun material bo'lib xizmat qiladigan til vositalarini aniqlash alohida qiziqish uyg'otadi" deb hisoblashadi" [3,175].

B.Y. Norman ham til o'yiniga nisbatan "me'yor chegarasida muvozanatlashadigan har qanday qoidalarni doimiy ravishda buzish" deb qaraydi [4,10]. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, til me'yoridan chetga chiqish ongli ravishda bo'lishi va faqatgina adresatning lingvistik ongi imkoniyatlarini hisobga olishi kerak emas. T. A. Gridinaning fikricha, "til o'yinining ta'sirini adresat uni tushungandagina erishilgan deb hisoblash mumkin" [2,214].

Dastlab, "lingvistik kreativlik", "til o'yini" va "okkazonal leksika" tushunchalarini aniqlash va farqlash kerak bo'ladi. Lingvistik kreativlik deganda ona tilida so'zlashuvchining til haqidagi bilimlarini manipulyatsiya qilish, yangi so'zlar yaratish, mavjud so'z va iboralarni semantikasini kengaytirish, e'tiborni jalb qilish, kulgili ta'sir yaratish qobiliyati va boshqalar

tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, lingvistik kreativlik - bu til haqidagi bilimlarning yig'indisi va til egalarining ulardan foydalanishga nisbatan e'tiborsizlik bilan yondashuvidir. Til o'yini - bu til ijodkorligining namoyon bo'lishi, uning shakli lingvistik vositalar majmuasidan foydalanish, kulgili, ekspressiv, ajablanish kabi ma'lum bir effektga erishish uchun til me'yorlarini ataylab buzish tushuniladi. Nominatsiya jarayonida ishtirok etuvchi o'yin vositalari bir qator funktsiyalarni bajaradi: 1) nominativ, 2) hissiy, 3) jozibali, 4) reklama va boshqalar [6,219].

Y.A.Zemskaya okkazonalizmlarni so'z yasash nuqtayi nazaridan tadqiq etib, ularni yasashiga ko'ra quyidagi ikki guruhga bo'ladi:

1. So'z yasash qoidalariga mos kelmagan holda vujudga kelgan okkazonalizmlar.
2. Tildagi so'z yasashi qoidalariga binoan unumli yoki unumsiz yasovchilar asosida yasalgan okkazonalizmlar.

Ye.A.Zemskaya birinchi guruh okkazonalizmlarini so'z yasash qoidalarining mutlaqo buzilishi asosida vujudga keladigan so'zlar sifatida talqin qiladi. Ikkinchi guruhdagilar esa so'z yasash qoidalarining umumiy jihatlari buzilishi natijasida paydo bo'lganini ko'rsatib o'tadi [7,229].

O'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham badiiy nutq okkazonalizmlariga ijodkorning so'z tanlash mahorati sifatida talqin etilgan. Jumladan, B.Umurqulov o'z ishida affikslar yordamida va so'zlarni qo'shib so'z yasash asosida vujudga kelgan okkazonalizmlarni tadqiq etadi [8,49]. Shuningdek, A.Mamatov ham so'z yasashi asosida hosil bo'lgan okkazonalizmlarni uch guruhga bo'lib tahlil etgan:

- 1.Strukturasi tildagi so'z yasash sistemasiga asoslangan okkazonalizmlar.
- 2.Sutukturasi umuman so'z yasash sistemasiga asoslangan, lekin u yoki bu darajada sistem qonuniyatlardan chetga chiqqan okkazonalizmlar.
3. Ikki yoki undan ortiq har xil o'zakli va turli ma'noli so'zlarning birikuvidan tashkil topgan, ya'ni kontaminatsiyalashgan okkazonalizmlar [9,202].

S. Toshaliyeva o'zbek tilida okkazonal so'z yasashini monografik tarzda tadqiq etdi [10,22].

S. Toshaliyevaning ta'kidlashicha, nutqiy hodisalar, ayniqsa, g'ayriodatiy (okkazonal) qo'llash va yasashlar tildagi barqarorlik, doimiylik, odatiylik, maromlilik hamda shaxsiy-ijodiylik o'rtasidagi uzviy ziddiyatning o'ziga xos ifodasi bo'lib, til (xususan, so'z yasashi) jarayonida yuz berayotgan o'zgarishlar va yangilanishlarni, ma'noviy-uslubiy tovlanishlarni kuzatish uchun boy material bera oladi [11,22].

Tadqiqotchi okkazonal so'z yasashini quyidagi turlarga ajratadi:

1. Mahsuldor so'z yasash andozasiga muvofiq yaratilsa ham, unga xos yasashning grammatik yoki semantik shart-sharoiti buziladi (she'riston).
2. Yasovchi asosni sinonimik va antonimik munosabatdagi so'z bilan almashtirish tufayli (to'g'rigo'y, yolg'ongo'y).
3. Yasovchi asosni unga yaqin ma'noli so'z bilan almashtirish orqali (tiyinxo'r).
4. Tilda mavjud frazeologik ibora, tasviriy ifodalar, analitik so'z shakllari va so'z birikmalarini ixchamlashtirish orqali (bog'lanmoq).
5. O'zbek tilda mavjud so'zlardan arabcha, ruscha-baynalmilal so'zlar, ilmiy-texnik terminlar andazasidagi okkazonal yasovchi morfemalar yordamida gibril yasash (arpatexnika).
6. G'ayriodatiy gibril so'zlar yasash (telexushomad) [12,47].

O. G. Batalovning keltirishicha, okkazonal leksika deganda "til an'alarida mavjud bo'lmagan, turlicha mahsuldorlikka ega so'z yasash modellari, shuningdek, muallif so'z yaratishning o'ziga xos modellari bo'yicha qurilgan noodatiy leksik birlik" tushuniladi [13,6].

Nominator (okkazonalizm muallifi) ma'lum bir vaziyatga mos keladigan yangi so'zlarni yaratish uchun o'zining lingvistik ongiga tayanadi. Okkazonal so'z yasashi tizimdan

tashqari xususiyatga ega, okkazional leksika lingvistik me'yordan estetik jihatdan shartlangan og'ishdir va har doim ham til o'yinining ta'siriga erishish uchun mo'ljallanmagan [13,6].

Yuqorida keltirilgan fikrlar quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

1. Til o'yini ergonomiyalarni yasash usullaridan biri sifatida ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, ularda kommunikativ-pragmatik effektga erishish usuli sifatida, jozibali effekt hosil qilishga xizmat qiladi.

Til o'yini asosida shakllangan muvaffaqiyatli nominatsiyalar murakkab lingvomarketing funksiyasini muvaffaqiyatli bajaradi, obyektning g'ayrioddiy shaklga, korxonaning faoliyatining mohiyati va xizmatlar ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida xabardor qilish, potentsial iste'molchining ongiga ta'sir qilish, qiziqish uyg'otish va uni nominatorning niyatiga mos keladigan harakatlar qilishga undash kabi yuzaga keladigan assotsiativ qatorga ega bo'lgan bir qator o'xshashlardan ajratib turadi.

### **Adabiyotlar**

1. Sannikov V. Z. Russkij yazyk v zerkale yazykovoij igry. M.: Yazyki slavyanskoj kul'tury, 2002. – C. 23.
2. Gridina T. A. Yazykovaya igra: stereotip i tvorchestvo: monografiya. Ekaterinburg: Izd-vo Ural. gos. ped. un-ta, 1996. -214 s.
3. Kitajgorodskaya M. V., Rozanova N. N. Yazykovoe sushchestvovanie sovremennogo gorozhanina: Na materiale yazyka Moskvyy. M.: Yazyki slavyanskij kul'tur (Studia Philologica), 2010. -S. 175–176.
4. Norman B. Yu. Igra na granyah yazyka. M.: Flinta, Nauka, 2006. – C. 10.
5. Gridina T. A. Yazykovaya igra: stereotip i tvorchestvo: monografiya. Ekaterinburg: Izd-vo Ural. gos. ped. un-ta, 1996. -214 s.
6. Shebalov R. Yu. Onomasticheskaya igra v hudozhestvennom tekste: Na materiale rannih rasskazov A. P. Chekhova: dis. ... kand. filol. nauk. -Ekaterinburg, 2004. -219 s.
7. Zemskaya E.A. Sovremennij russkij yazyk. Slovoobrazovanie— M.: Prosveshchenie, 1973. – 229 c.
8. Umurkulov B. Poetik nutq leksikasi. — T.: Fan, 1990. — B.48 - 49.
9. Mamatov A. Xozirgi yzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari: filol. fanlari d-ri ... dis. — T., 1991. — B.202.
10. Toshaliyeva S. O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi: filol. fanlari nomz... dis. avtoreferati. — T. 1998. — 22 b.
11. Toshaliyeva S. O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi: filol. fanlari nomz... dis. avtoreferati. — T. 1998. — 22 b.
12. Toshaliyeva S. Maromsiz yasamalar haqida // O'zbek tili va adabiyoti . — 1993, —№3. — B. 71-74; O'sha muallif. Ilm-fan rivojining lisoniy alomati // O'zbekiston adabiyoti va san'ati.— 1993, 1 okt.. O'sha muallif. O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi: filol. fanlari nomzodi ... dis. — T., 1998. — B. 46-50.